

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 31 (1630), 2026-yil 14-fevral, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



IQTISODIY O‘SISHNI YANADA YUQORI SUR‘ATLARDA TA‘MINLASH UCHUN BARCHA IMKONIYATLAR BORLIGI KO‘RSATIB O‘TILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Yig‘ilish avvalida o‘tgan yilgi makroiqtisodiy natijalar qayd etildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o‘tib, 147 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiy o‘shishning yarmidan ko‘pi xizmatlar hisobiga ta‘minlandi. Qishloq xo‘jaligida gektaridan o‘rtacha daromad 4,5 mingdan 5 ming dollarga ko‘paydi, mehnat unumdorligi 4,7 foizga oshdi.

Iqtisodiyotga ilg‘or, energiya tejamkor texnologiyalar kirib kelayotgani hamda yuqori qo‘shilgan qiymat beradigan loyihalar ko‘payib borayotgani natijasida bir yil ichida bir dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratishga sarflangan energiya xarajatlari 15 foizga kamaydi.

Prezidentimiz 2026-yil uchun belgilangan ko‘rsatkichlarga to‘xtalib, 6,6 foizli iqtisodiy o‘shish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard

dollarga yetkazish rejasini geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy tebranishlarni inobatga olgan holda shakllantirilgan ehtiyotkor prognoz ekanini ta‘kidladi.

Shu bilan binga, har bir vazir, hokim va tarmoq rahbari sohasiga yangicha boshqaruv olib kirib, resurslardan samarali foydalansa, an‘anaviy eksport bozorlariga bog‘lanib qolmasdan yangi yo‘nalishlar ochsa, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt bo‘yicha mutaxassislarni jamlab,

innovatsiyalar kiritisa, yoshlarni jalb etib, “startup klub”lar tashkil etsa, iqtisodiy o‘shishni yanada yuqori sur‘atlarda ta‘minlash uchun barcha imkoniyatlar borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda strategik korxonalar samaradorligi va xarajatlarni qisqartirish masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

Milliy investitsiya jamg‘armasini boshqarishga jalb etilgan “Franklin

Templeton” kompaniyasi tahliliga ko‘ra, korporativ madaniyatni kuchaytirish, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligiga katta xazinalar mavjudligi qayd etildi. 19 ta strategik korxona rahbarlariga xarid tizimi, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligi bo‘yicha keskin choralar ko‘rib, tannarxni 10-15 foizga qisqartirish vazifasi qo‘yildi.

— Iqtisod qilish rejasini ishlab chiqarishni kamaytirish hisobidan emas, balki mahsulot tannarxini qisqartirish orqali ta‘minlanishi shart, — dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, strategik korxonalarni “Yagona g‘aznachilik” axborot tizimi bilan qamrab olish, xaridlarni risk-tahlil asosida toifalash orqali samarasiz xarajatlarga chek qo‘yish muhimligi ta‘kidlandi.

Davomi 2-betda

TEXNOPARKLAR — ELEKTROTEXNIKA SANOATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQUYOTGAN KLASTERG AYLANYAPTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-fevral kuni Toshkent viloyatining Ohangaron tumaniga tashrif buyurib, elektrotexnika sanoati texnoparkidagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Dastlabki manzil yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Enco Group” korxonasi bo‘ldi.

Mamlakatimizda energetika tarmog‘ini jadal modernizatsiya qilish, yangi elektr stansiyalari va nim-stansiyalar qurish, magistral tarmoqlarni yangilash hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholi sonining o‘shishi natijasida elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois, yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlariga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talab shakllanmoqda.

Faoliyati ushbu talabni qondirishga qaratilgan “Enco Group” korxonasi Belarus Respublikasining “EnergoKomplekt” kompaniyasi bilan hamkorlikda “Eltech Industrial” texnopark hududida 21 gektar maydonda barpo etilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati qariyb 60 million dollarni tashkil etadi. Korxona to‘liq quvvatga chiqqanidan so‘ng 600 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratiladi.

Loyiha ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Korxona yiliga 25 ming tonna mahsulot ishlab chiqarishi, eksport salohiyati 300 million dollarni tashkil etishi kutilmoqda.

Ayni paytda qurilish ishlarining birinchi bosqichi 98 foizga yakunlangan, 10 million dollardan ortiq investitsiya o‘zlashtirilgan. Korxona mahsulotlari Germaniya, Latviya, Estoniya, Bolgariya va MDH davlatlariga eksport qilish rejalashtirilgan bo‘lib, dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, yillik eksport hajmi 140 million dollarga yetishi taxmin qilinmoqda.

O‘tgan yili mamlakatimizga 400 million dollarga yaqin yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlari va izolyatsiyalangan mis shinalar import qilingan. Korxona to‘liq ishga tushirilgandan keyin 150 million dollarlik import o‘rmini bosuvchi shunday mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Markaziy Osiyoda bunday yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan 12 ta korxonaning 4 tasi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatimizda elektrotexnika sanoati bosqichma-bosqich yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqqa aylanayotganini ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbariga korxonaning kelgusidagi rivojlanish rejalari, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot turlarini ko‘paytirish hamda mahalliy lashtirish darajasini oshirish bo‘yicha takliflar taqdimot qilindi.

Prezidentimiz sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Ohangaron tumanidagi “Vades Group” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan yuqori texnologiyali loyiha bilan tanishdi.

Mazkur korxonada identifikatsiya uchun mo‘ljallangan mikroprotsessor modullari, sim-kartalar, shuningdek, transport, ijtimoiy va xalqaro to‘lov kartalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvarda “Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Hujjatda elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarini rivojlantirish, yuqori texnologiyali hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish borasida vazifalar belgilab berilgan.

Shunga muvofiq, korxona raqamli davlat xizmatlarini joriy etish, fuqarolarning kundalik ehtiyojlari uchun qulay va xavfsiz to‘lov tizimlarini shakllantirishda zarur bo‘lgan vositalarni ishlab chiqaradi.

Germaniyaning “Infineon technologies” kompaniyasi bilan hamkorlikda “Eltech Industrial” texnopark hududida tashkil etilayotgan korxonaning umumiy qiymati 15 million dollarga teng.

Ayni vaqtda qurilish ishlarining ikkinchi bosqichi o‘n besh foizga bajarilib, 7 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan.

Hududi 4 gektar maydonni egallagan zamonaviy majmuada 100 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratiladi, 6 million dollarlik eksport amalga oshiriladi.

Ma‘lumot o‘rni ayditi mumkinki, 2025-yil davomida mamlakatimizga 35 million dollarlik mikroprotsessor modullari, sim-kartalar va turli to‘lov kartalari import qilingan.

Mazkur korxona to‘liq ishga tushishi hisobiga 5 million dollarlik import o‘rmini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilib, bozordagi tannarx uch-besh foizga pasayishi kutilyapti.

Zamonaviy korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston hamda Mozambik, Kambodja kabi qator davlatlarga eksport qilinadi.

Davlatimiz rahbari MDH davlatlari orasida ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha uchinchi o‘rinda bo‘lishi kutilayotgan ushbu korxonada yaratilayotgan shart-sharoitlar, texnologik ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Prezidentimiz yuqori qiymatli mahsulotlar bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etish, mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish va eksportni yanada kengaytirish masalalarida muhim topshiriq va tavsiyalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatiga tashrifi doirasida Ohangaron tumanidagi “Infinity Copper Group” mis quvurlari va fittinglar ishlab chiqarish korxonasida ham bo‘ldi.

Loyiha Xitoy va Germaniya kompaniyalari bilan hamkorlikda 10 gektar maydonda amalga oshirilayotgani, uning umumiy qiymati 36 million dollarga teng ekan haqida ma‘lumot berildi.

Bu yerda qurilish ishlari 90 foizga yakunlangan, loyiha doirasida 14,9 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan. O‘zbekistonga 2025-yilda 15 million dollarlik mis quvurlar va fittinglar import qilingan. Mazkur korxona to‘liq ishga tushgach, 10 million dollarlik import o‘rmini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Korxonada 300 ta yangi ish o‘rni yaratiladi, 200 milliard so‘m byudjet tushumlari ta‘minlanadi hamda 350 million dollarlik eksport amalga oshiriladi. Mahsulotlar Birlashgan Arab Amirliklari, AQSH, Afrika qit‘asi hamda Yevropa davlatlariga yetkazib beriladi.

“Infinity Copper Group” O‘zbekistonda mis quvurlari va fittinglar ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab, jami to‘rtta ishlab chiqarish korxonasini o‘z ichiga oladi.

Prezidentimiz mamlakatimizda mis quvurlari va fittinglar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat mahsulotlari ulushini oshirish muhimligini ta‘kidladi.

Davomi 2-betda

Taraqqiyot mezon

BIZ DUNYOGA OCHILDIK, DUNYO BIZGA YUZLANDI

Har bir mamlakat milliy yuksalish sari yuz tutar ekan, oldiga qo‘ygan ezgu maqsadining ro‘yobga chiqishi, birinchi navbatda, jamiyat hayotining turli sohalaridagi islohotlarning real samarasi, xalq turmush tarziga ta‘sir, qabul qilinayotgan qaror va dasturlarning to‘la bajarilishi, jamiyat a‘zolarining bu jarayondagi faol ishtirokiga bevosita bog‘liq. Eng muhimi, bu faollik odamlarda milliy taraqqiyotga daxldorlik, mas‘ullik tuyg‘usini oshiradi. Tinch-totuv yashash, farovon turmush, ishchanlik va tashabbuskorlik, yoshlar tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanish ko‘pchilik uchun ham ma‘naviy, ham fuqarolik burchiga aylanadi. Bu burch jamiyatning ilg‘or qatlamini mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy hayotida yanada harakatchan bo‘lish, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga da‘vat etadi.

Mamlakatimizda keyingi o‘n yillikda misli ko‘rilmagan taraqqiyot yo‘liga kiradi. Bu yillarning har biri, har daqiqasi muttasil kurash, intilish, izlanish, yanada yorug‘ kelajakka qat‘iy ishonch ruhi bilan ajralib turadi. Ayni chog‘da bugungi tinch-totuv, erkin va farovon

hayotimizni asrab-avaylash, Vatanimizning rivojlangan mamlakatlar safidan mustahkam o‘rin olishi uchun har bir kishi yoshi, kasb-koridan qat‘i nazar, fidokorona mehnat qilishi, bilim va tajribasini yoshlarga o‘rgatishi, ular tarbiyasiga yanada e‘tiborli bo‘lishi zarur.

Davomi 3-betda

14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

“DAVRON MENI O‘TKARDI SARU SOMONDIN”

SHOH VA SHOIR NAZDIDA MA’RIFAT HAMDA BOSHQARUV QIYMATI

6

TEKNOPARKLAR – ELEKTROTEXNIKA SANOATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQUYOTGAN KLASTERGA AYLANYAPTI

Boshlanishi 1-betda

Bunday zamonaviy, raqobatbardosh korxonalar sonini koʻpaytirish orqali ichki bozor ehtiyojini toʻliq qondirish va eksport salohiyatini yanada kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Ohangaron tumaniga tashrifi davomida “Premier” maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonasi faoliyati bilan ham tanishdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda elektrotexnika sanoatini rivojlantirish har tomonlama qoʻllab-quvvatlanmoqda. Natijada tarmoqqa toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, import oʻrnini bosuvchi, eksport bozorlarida raqobatbardosh va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish kengaydi.

Xususan, Ohangarondagi mazkur loyiha ham Birlashgan Arab Amirliklarining “Fajr Al Mustaqbal General Trading” korxonasi bilan hamkorlikda 10 gektar maydonda amalga oshirilayotgan boʻlib, umumiy qiymati 30 million dollarni tashkil qiladi.

Loyiha doirasida 250 ta yangi ish oʻrni yaratiladi, 4 million dollar eksport amalga oshiriladi. Ayni vaqtda qurilish ishlari 95 foizga bajarilib, 11,3 million dollar investitsiya oʻzlashtirilgan.

Mazkur korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar Ozarbayjon, Qozogʻiston, Tojikiston, Rossiya, Qirgʻiz Respublikasi, Afgʻoniston kabi davlatlarga eksport qilinadi.

Ayni paytda bu kabi korxona Oʻzbekistonda ikkita, Markaziy Osiyoda esa toʻrtta boʻlib, ularning orasida mazkur loyiha mahsulot ishlab chiqarish hajmi boʻyicha ikkinchi oʻrinda turadi.

Kelgusida majmua toʻliq ishga tushishining hisobiga 87 million dollarlik import oʻrnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilyapti.

Davlatimiz rahbari korxonaning ish jarayoni, mahsulotlari sifatini koʻzdan kechirdi. Mutaxassislar va ishchilar bilan suhbatlashdi.

Shu yerning oʻzida korxonaning 2026-2027-yillarga moʻljallangan rivojlanish dasturi taqdimot qilindi. Mamlakatimizdagi elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning koʻrgazmasi bilan tanishildi.

Prezidentimizga “Eltech Industrial” texnoparkida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli rejalarni koʻrsatib berildi.

Texpopark elektrotexnika sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish oʻrinlari yaratish va eksport geografiasini kengaytirishga qaratilgan yirik sanoat klasteriga aylanmoqda. Texpopark toʻrtta hududdan iborat, umumiy maydoni 362 gektarni tashkil etadi. Hozirgi kunda 4 ta loyiha ishga tushirilgan, 27 ta loyiha shakllantirilgan. Umumiy qiymati 797 million dollar boʻlgan korxonalar minglab yangi ish oʻrinlari yaratish va salmoqli eksport hajmiga erishish rejalashtirilgan.

Ishga tushirilgan korxonalarda mis quvurlari va fittinglar, mikroprotessor modullari va sim-kartalar, yuqori kuchlanishli kabellar hamda maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Kelgusida oʻta yuqqa mis folsagi, boshqaruv va SIP kabellari, robototexnika va elektroplatalar kabi yangi turdagi mahsulotlar oʻzlashtiriladi.

— Elektrotexnika sanoatini iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylantirib, koʻrsatkichlarni kelgusida oʻn milliard dollarga yetkazishni strategik maqsad qilib qoʻyishimiz zarur. Buning uchun ichki va tashqi bozorlarda mustahkam oʻrin egallash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda soha uchun yetuk, zamonaviy bilim va koʻnikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida eʼtibor qaratishimiz shart, — dedi davlatimiz rahbari.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Marhabo XOJIAKBAROVA,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
OʻZA muxbirlari

Boshlanishi 1-betda

Hududiy sanoatni rivojlantirishdagi kamchiliklar keskin tanqid qilindi. Uch yilda respublika sanoati 21 foiz oʻsgan boʻlsa-da, qator tumanlarda bu koʻrsatkich 10 foizga ham yetmagani, ayrim hududlarda kredit resurslari va investitsiyalarning oʻsishi sanoat oʻsishiga mutanosib taʼsir koʻrsatmayotgani koʻrsatib oʻtildi.

Viloyat hokimlarining birinchi oʻrinbosarlariga 12 ta tumanga borib, bir oy joyida ishlash, ishlab chiqarishi pasaygan korxonalarni “oyoqqa turgʻazish” va ushbu tumanlarda sanoat oʻsishini taʼminlash vazifasi qoʻyildi.

Umuman, respublika sanoatini kamida 8,5 foizga oʻstirish boʻyicha tarmoqbay va hududbay rejalarni tasdiqlash, birinchi chorak yakunida aniqlangan muammolar va ularning yechimiga qarab, rahbarlar faoliyatiga baho berish belgilandi.

Yurtimizda yiliga 650 ming dona avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega 4 ta yirik korxona mavjudligi, bu yil 300 dan ziyod mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya asosida yana 763 ta detal ishlab chiqarishni boshlash hamda avtomobil ishlab chiqarishni 510 mingga yetkazish zarurligi taʼkidlandi. Aholi talabini ragʻbatlantirish maqsadida avtokredit stavkalarini pasaytirish va hajmini oshirish choralarini koʻrish topshirildi.

Investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni samarali amalga oshirish boʻyicha yangi boshqaruv yondashuvlari belgilandi.

Joriy yil 50 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelish rejasini qoʻyilgani, yangi loyihalar birinchi navbatda yuqori qoʻshilgan qiymatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga, resurslardan samarali foydalanish hamda yuqori daromadli ish oʻrinlari yaratishga xizmat qilishi zarurligi taʼkidlandi.

Vazirlar va hokimlarga 2026-yilgi investitsiya dasturiga kiritilayotgan har bir loyihaning bozori, eksporti, qoʻshilgan qiymati va yaratadigan ish oʻrinlarini toʻliq tahlil qilish topshirildi.

Endilikda investitsiya loyihalari bilan ishlashda loyihani ishga tushirish bilan cheklanib qolmasdan, uning toʻliq ishlashi, yuqori qoʻshilgan qiymat yaratishi va tashqi bozorga chiqishi boʻyicha ham qatʼiy nazorat oʻrnatiladi. Shu maqsadda dasturga kirgan har bir loyihani ishga tushgandan keyin uch yil davomida monitoring qiladigan “Yagona milliy loyiha boshqaruvi” platformasi yaratiladi.

Oʻtgan yili turli tashkiliy muammolar sabab 55 ta yirik loyiha kechikkani qayd etilib, bu yil qiymati 165 milliard dollarlik 377 ta strategik loyiha alohida nazoratga olinishi belgilandi.

Shuningdek, xorijiy tashriflar doirasida 135 milliard dollarlik kelishuvlarga erishilgani, joriy yilning oʻzida Turkiya

IQTISODIY OʻSISHNI YANADA YUQORI SURʼATLARDA TAʼMINLASH UCHUN BARCHA IMKONIYATLAR BORLIGI KOʻRSATIB OʻTILDI

bilan 9 milliard, Pokiston bilan 1 milliard 428 million dollarlik investitsiya bitimlari imzolangani maʼlum qilindi.

Investitsiyalarning koʻpayishi hisobiga qurilish hajmini oshirish vazifasi qoʻyildi. Mutasaddilarga joriy yilgi qurilish hajmini 400 trillion soʻmga olib chiqib, sohada kamida 17 foiz oʻsishni taʼminlash topshirildi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi uchun budjetdan 40 trillion soʻm ajratilayotgani qurilish, qurilish materiali, metallurgiya va elektrotexnika korxonalari uchun katta bozor ekani qayd etildi.

Shu bilan birga, hududlardagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari nazoratini kuchaytirish, Qoraqalpogʻiston, Samarqand va Fargʻonada buyurtmachi xizmatlariga tajriba tariqasida xususiy sektorni jalb qilish muhimligi taʼkidlandi.

Energiya samaradorligini oshirish masalalari boʻyicha ham aniq koʻrsatmalar berildi.

Kichik va oʻrta korxonalarning yillik energiya isteʼmoli kattaligi hisobga olinib, bu toifadagi korxonalarda energiya samaradorlik boʻyicha yangicha tizim joriy etilishi va uch yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi. 2026-yilda kichik va oʻrta korxonalarda 100 million kub metr gaz va 500 million kilovatt-soat elektmi tejash choralarini koʻrish muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, respublikadagi 917 mingta yoritish chiroqlarining yiliga 330 million kilovatt-soat elektr sarflayotgani va kunduz kuni ham yoniq qolish holatlari uchrayotgani koʻrsatilib, yoritish ustunlariga kichik quyosh paneli, batareya hamda kun yorishishiga qarab, oʻzi oʻchib-yonadigan datchik oʻrnatishni boshlash topshirildi.

Yigʻilishda davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushini oshirish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratildi.

Qayd etilganidek, 300 trillion soʻmlik davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushi 68 foizga yetgan boʻlsa-da, Olmaliq kombinati, “Oʻztransgaz”, “Milliy elektr tarmoqlari”, “Uzbekistan Airports” va “Oʻzbekiston havo yoʻllari” tizimlarida bu koʻrsatkich 40 foizga ham yetmayotgani koʻrsatib oʻtildi. Shuningdek, tadbirkorlar davlat xarid, ekspertiza va sertifikatlash jarayonlarida byurokratiya koʻpligi, ayrim rahbarlar esa “chet elniki sifatliroq” degan eski qarashdan hali ham voz kechmayotganini aytmoqda.

Endi vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlar har bir loyihada muzokara, tender, qurilish xamda xomashyo taʼminotining barcha bosqichlarida mahalliy mahsulotlar ulushini koʻpaytirishga shaxsan javob berishi belgilandi.

Iqtisodiy oʻsishni tashqi bozorlar hisobidan taʼminlash masalasi yigʻilishning alohida yoʻnalishi boʻldi.



Ijtimoiy himoya jamiyatda barqarorlik va adolatni taʼminlashning muhim asosi. Shu bois, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatimizning strategik vazifalaridan biriga aйлandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Oʻzbekiston ijtimoiy davlat ekani mustahkamlab qoʻyildi. Ijtimoiy majburiyatlarga doir normalar 3 barobar oshirilib, mehnatga layoqatsiz va yolgʻiz keksalar, nogironligi boʻlgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalari huquqlari davlat himoyasida boʻlishi belgilandi.

Soʻnggi yillarda bu jabhada qilinayotgan ishlar natijasida ijtimoiy himoya yangi bosqichga olib chiqilib, yagona markazlashgan tizim sifatida shakllantirildi. Tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, har bir mahallada ijtimoiy xodimlar faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Mahalla darajasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish tizimi yaratildi. Nogironligi boʻlgan shaxslarga koʻmaklashish, jamiyatga integratsiyalash, sifatlí protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalari bilan taʼminlash tizimi takomillashtirildi.

Imkoniyati cheklangan aholi kambagʻallikka tushib qolishining oldini olish va ularni qoʻllab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish maqsadida yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Munosib mehnat sharoitlari yaratilaypti, mehnat bozorida talab yuqori kasblar boʻyicha oʻqitilyapti va bandligi taʼminlanyapti. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy taʼlim bilan qamrab olish uchun alohida dasturlar amalga oshirilaypti. Ogʻir vaziyatga tushib qolgan bolalarga gʻamxoʻrlik qilish va ularni zoʻravonlikning har qanday koʻrinishidan himoyalash borasida yangi tajriba yaratildi. Albatta, bunday xayrli ishlar inson qadriini ulugʻlash, jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlashda oʻz samarasini bermoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrda “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga

IJTIMOY REYESTR DAVLAT KOʻMAGINI AHOLIGA YANADA YAQIN QILADI



Aralov. — Ijtimoiy reyestrqa kiritilgan oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, uchta toifaga ajratildi. Bundan maqsad ehtiyojmand oilalarga koʻrsatilayotgan davlat koʻmagini yanada yaxshilash va ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirishdir.

Ijtimoiy reyestrqa kiritilgan oilalarga davlat tomonidan koʻrsatiladigan qoʻllab-quvvatlashning yangi tartibiga muvofiq, “davlat taʼminotidagi oila”larga aʼzolarining bandlik holatidan qatʼi nazar, bolalar nafaqasi va moddiy yordam uluksiz toʻlab boriladi. Zero, bunday oila ahlining aksariyati mehnatga layoqatsiz yoki mehnat qilish imkoniyati cheklangan boʻladi. Shu bois, ularni uluksiz qoʻllab-quvvatlash oailada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratadi. Shu maqsadda ijtimoiy himoya chora-tadbirlari yanada takomillashtirilib, “davlat taʼminotidagi oila”lar uchun qator ijtimoiy yordam paketlari ham joriy etilyapti.

Jumladan, ularning xonadoniga quyosh panellari oʻrnatish uchun Kambagʻallikni qisqartirish davlat maqsadli jamgʻarmasidan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi. Ushbu oilalarning mehnatga layoqatli aʼzolari bandligini taʼminlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirishga koʻmaklashish uchun Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida tijorat banklari orqali 4 yilgacha muddatga bazaviy hisoblash



Inson qadri uchun



“

BANDLIKKA KOʻMAKLASHISH DAVLAT JAMGʻARMASIDAN 3 YILGACHA MUDDATGA OLTÍ OYLIK IMTIYOZLÍ DAVR BILAN BAZAVIY HISOBLASH MIQDORINING 75 BARAVARIGACHA FOIZSIZ SSUDA AJRATILADI.

miqdorining 75 baravarigacha miqdorda kredit taqdim etiladi.

Bunga chorva mollari, parranda, quyon, baliq va asalari uyasi, koʻchma doʻkonlar, motoroller, skuter va boshqa asosiy vositalarni sotib olish yoki issixona qurib, oilaga koʻshimcha daromad kiritish mumkin. Kredit bir yillik imtiyozli davr bilan “davlat taʼminotidagi oila” toifasidagi oila aʼzosisining ijtimoiy kartasiga oʻtkaziladi. Kredit foiz stavkasi Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasidagi foiz stavkasida hisoblanadi va foiz toʻlovlari Kambagʻallikni qisqartirish davlat maqsadli jamgʻarmasiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablagʻlar hisobidan tijorat banklariga qoplab beriladi.

“Davlat taʼminotidagi oila” yoki “kambagʻal oila” toifalaridan “kambagʻallik chegarasidagi oila” toifasiga oʻtganlarga ularning ijtimoiy reyestrda avvalgi toifasi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari keyingi oʻn ikki oy muddatda foydalanish huquqi bilan saqlab qolinadi.

parvarishiga muhtoj yolgʻiz yashovchi hamda yolgʻiz shaxslar, oila aʼzosi muddatli harbiy xizmatda yoki jazoni eritish muassasasida boʻlgan oilalar bu jarayonda alohida eʼtiborga olinadi.

Qolaversa, oila aʼzosi psixiatriya, narkologiya, sil kasalliklari dispanserida yoki onkologiya markazlarida roʻyxatda boʻlgan, gematologiya, immunologiya, jigar, buyrak yetishmovchiligi kabi ogʻir kasallikka chalingan aʼzosi bor oilalar, yongʻin, baxtsiz hodisa, tabiiy yoki texnogen favqulodda vaziyatlardan jabrlangan oilalar “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida ijtimoiy koʻmakdan bahramand boʻlishi mumkin. Bu imkoniyat tufayli ogʻir hayotiy vaziyatga tushib qolgan 120 mingdan ortiq ehtiyojmand oila Ijtimoiy reyestr bilan qamrab olinadi.

Aholining ehtiyojmand qismini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlatimiz tomonidan yaratilayotgan bunday koʻmak va yordamdan bahramand boʻlish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), Davlat xizmatlari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, mahallalardagi ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy karta mobil ilovasi orqali ariza berish imkoniyati yaratildi.

Murojaat qiluvchilar Ijtimoiy reyestrqa kiritish toʻgʻrisidagi arizasida bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlash bilan birga oilaning boshqa ehtiyojlarini ham bayon etishi mumkin. Arizasida koʻrsatilgan ehtiyojlardan kelib chiqib individual reja ishlab chiqiladi va shu asosda oilaning barcha ijtimoiy muammolarini hal etish choralari koʻriladi.

Yana bir yangilik ehtiyojmand oilalarni aniqlash uslubiyatiga kiritilgan oʻzgartirishlar bilan bogʻliq. Amaldagi tartibga asosan, oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarga mehnatga haq toʻlash eng kam miqdordagi 2 baravari miqdorida daromad hisoblanadi. Vaholanki, Toshkent shahri, viloyat markazlari va boshqa aholi punktlarida oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarning daromad topishi chekka hududlardagi oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarnikiga nisbatan yuqori. Endi oʻzini oʻzi band qilgan fuqarolarga daromad miqdorini hisoblash tabaqalashtirilib, hududiga qarab belgilanadi. Ayollar uchun daromadlar miqdori mos ravishda kamaytirildi. Natijada oʻziga toʻq oilalar reyestrqa tushib qolishining oldi olinadi.

Farmon asosida, shuningdek, joriy yilda nogironligi boʻlgan 40 ming shaxsning rasmiy bandligini taʼminlash va ularga barqaror daromad manbaini yaratishga qaratilgan “Teng imkon — inklyuziv bandlik” dasturi amaliyotiga joriy etiladi. Dastur doirasida nogironligi boʻlgan shaxslarga bandligini taʼminlash uchun zarur jihozlar, asbob-uskuna va boshqa mehnat qurollari, xomashyo xarid qilish, internet xizmatlariga ulanish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish maqsadida Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasidan 3 yilgacha muddatga olti oylik imtiyozli davr bilan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha foizsiz ssuda ajratiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



BIZ DUNYOGA OCHILDIK, DUNYO BIZGA YUZLANDI

Taraqqiyot mezoni



Ahmadjon MELIBOYEV,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Yillar janjiri uzluksiz ulanib boraveradi. Vaqt charxi tinimsiz aylanadi. Bir qarashda hammaga bir xil imkoniyat berilgandek. Ammo milliy taraqqiyot yo‘lini aniq belgilagan, bu yo‘lda hamijhat bo‘lib harakat qilayotgan, ogohlilni qo‘ldan bermagan, yutuqlaridan esankiramay, baland marallarni ko‘zlagan xalqqina o‘zining buyuk kelajagini ta‘minlay oladi. Bu jarayondagi qisqa fursatli to‘xtalish ham umumiy shiddatni susaytiradi.

Ha, vaqt shiddat bilan o‘tib boradi. Tarixga aylanayotgan yillar istiqbol solnomasida o‘zining salmoqli izini qoldiradi. Ammo hayotda shunday yillar, qisqa davrlar ham bo‘ladiki, ular mohiyatani yillik yoki oylik vaqt, baho o‘lchoviga sig‘maydi. Bugun xalqaro hamjamiyatning to‘laonli a‘zosiga aylangan O‘zbekistonning keyingi o‘n yildagi jasoratli ishlari, ma‘naviy yuksalish, iqtisodiy barqarorlik borasida qo‘lga kiritayotgan yutuqlari dunyo e‘tiborini o‘ziga qaratayotgani boisi shunda. O‘zbekiston 2017-yildan boshlab ichki va tashqi siyosatda jiddiy yangilanish yo‘liga o‘tdi. Iqtisodiyot erkinlashdi, tadbirkorlikni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash boshlandi, valyuta konvertatsiyasiga yo‘l ochildi. Yanada muhimi, xalq bilan bevosita muloqot qilish, fikr-mulohazalariga quloq tutish, o‘rinni taklif va tashabbuslarni inobatga olish Prezidentimiz siyosatida o‘z ifodasini topdi. Fuqarolarning huquqiy ongi va bilimini oshirish, korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash birlamchi, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifaga aylandi. Tashqi siyosatda, avvalo, uzoq-yuqin qo‘shnilar bilan munosabatlarni yaxshilandi, muzlar ko‘chdi, ginalar unutildi. Xorijiy investorlarga yo‘l ochildi, ularga huquqiy kafolatlar beruvchi qonunlar qabul qilindi. Bugun nainki biz, balki dunyo hamjamiyati ham mamlakatimizda

kechayotgan yangilanish jarayonlarining real natijalarini yaqqol ko‘rib turibdi. Erkinlik va ochliklik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan manfaatli hamkorlik davlatimiz siyosatining o‘zak yo‘nalishiga aylandi. “Yangi O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” degan tamoyil Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bu yo‘nalishga doir ba‘zi raqamlarga e‘tibor bersak.

Shu o‘n yillikda davlat byudjetidan ta‘lim hamda tibbiyot sohasiga ajratilgan mablag‘ hajmi sezilarli darajada ko‘paydi. Bundan o‘n yil avval maktabgacha ta‘lim qamrovi 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 76 foizga yetdi. Oliy ta‘lim sohasidagi qamrov 9 foizdan 42 foizga o‘tdi. 180 mingga yaqin oila arzon uy-joy bilan ta‘minlandi. Aholi uchun yo‘naltirilayotgan ipoteka krediti miqdori to‘rt barobar oshdi. 2025-yili 302 ming oila kambag‘allik holatidan chiqdi. Mamlakatimiz tez va barqaror rivojlanayotgan davlatlar safidan joy oldi.

O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati mamlakatimizning o‘ziga xos “tashrif qog‘ozini”ga aylanganini xorijiy davlatlar yetakchilari va xalqaro ekspertlar rasman e‘tirof etmoqda. Buning boisi shuki, O‘zbekistonning prinsipial tashqi siyosati xalqaro munosabatlarda yuksak baholandi. O‘tgan yili strategik ahamiyatga ega bir necha ijtimoiy-siyosiy voqea yuz bergani O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeiini sezilarli darajada ko‘taradi.

Markaziy Osiyodagi ulkan o‘zgarishlar, yagona maqsad yo‘lidagi real qadamlar, mamlakatimizning Turkiy tilli davlatlar kengashi faoliyatidagi yetakchi va tashabbuskorligi, davlatimiz rahbarining uzoq va yaqin davlatlarga, jumladan, AQSH va Yaponiyaga rasmiy safarlari natijasi fikrimiz isbotidir. Bu jarayonda Shavkat Mirziyoyevning eng muhim, g‘oyat chigal xalqaro muammolarni ham tinch, muzokaralar yo‘li bilan hal qilish to‘g‘risidagi takliflari e‘tiborga tushdi.

O‘zbekiston ayni paytda AQSH, Xitoy, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va Yaqin Sharq



O‘ZBEKISTONNING TINCHLIKSEVAR TASHQI
SIYOSATI MAMLAKATIMIZNING O‘ZIGA
XOS “TASHRIF QOG‘OZI”GA AYLANGANINI
XORIJIIY DAVLATLAR YETAKCHILARI VA
XALQARO EKSPERTLAR RASMAN E‘TIROF
ETMOQDA.

mamlakatlari diqqat markazida turibdi. Mamlakatimizga qiziqish g‘oyat katta. Biz bilan hamkorlik qilishni xohlayotganlar ko‘p. O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo aylanmasi so‘nggi besh yilda ikki barobardan oshdi. Fransiya, Germaniya, Belgiya va Italiya kompaniyalarining to‘qimachilik, qayta tiklanadigan energiya, logistika kabi sohalarda O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalari kengaydi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mingdan ziyod Yevropa qo‘shma korxonalarining umumiy sarmoyasi 40 milliard yevroga baholannmoqda.

Xitoy O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkori bo‘lib qolayotir. O‘zaro savdo jadal

o‘shida davom etayotgani va bu manfaatli hamkorlik har ikki tomonning iqtisodiy mavqeyini mustahkamlayotgani inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat.

Xalqaro moliyaviy aloqalar bilan bog‘liq hech qachon o‘zgarmaydigan bir haqiqat bor: investorlar ming mashhaqqat bilan topgan mablag‘ini ishonchsiz, qonunlari kuchsiz, xalqaro andozalarga mos kelmaydigan, korrupsiya ildiz otgan hududlarga kiritmaydi. Bu jihatdan ko‘ngli to‘q, bexavotir bo‘lgandagina hamkorlikka imzo chekadi. Bugun mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar miqdori tobora oshib borayotgan ekan, bu mulkdorlarning O‘zbekistonga ishonchi mustahkamlanib borayotganidan dalolat.

2025-yil O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish yili bo‘ldi. Vashingtonda o‘tgan Markaziy Osiyo — AQSH sammiiti (C5+1) va yuqori darajadagi ikki tomonlama muzokaralar bunga mustahkam asos yaratdi. Davlatimiz rahbari va AQSH Prezidenti Donald Trump o‘rtasida o‘tgan yili noyabrda Vashingtonda bo‘lib o‘tgan uchrashuvdan so‘ng Davlat departamenti ikki davlatning o‘zaro munosabatlari tarixidagi strategik jihatdan g‘oyat muhim kelishuvlar to‘plamini e‘lon qildi. Unda o‘zaro savdo aylanmasi so‘nggi sakkiz yilda to‘rt barobar oshgani, O‘zbekistonda ayni paytda 300 dan ortiq AQSH kompaniyasi faoliyat yuritayotgani qayd etilgan.

2026-yil 22-yanvarda Donald Trump Shveysariyaning Davos shahrida o‘tkazilgan Jahon iqtisodiy forumida o‘zining tashabbusi bilan tuzilayotgan Tinchlik kengashi taqdimotini o‘tkazdi. Ushbu kengash a‘zolariga O‘zbekistonning taklif etilishi vatanimizning jahondagi obro‘-e‘tibori yanada oshayotganining isbotidir.

Davlatimiz rahbarining Pokiston Islom Respublikasiga rasmiy tashrifi chog‘ida imzolangan o‘zaro hamkorlikka doir muhim hujjatlar, kelishuvlar ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik aloqalari uzoq tarixga borib taqalishini namoyon etdi. O‘zbekiston rahbari va xalqimizga ehtirom, dunyo hamjamiyatida yurtimizning bugungi baland mavqeyi, xalqaro maydonda ishonchli sherikka aylanib borayotgani alohida e‘tirof etildi. Pokiston rahbarlari O‘zbekistonning mintaqada tinchlikni saqlab qolish, har qanday nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish borasidagi qat‘iy pozitsiyasi, bu jarayonga qo‘shayotgan salmoqli hissasini takror-takror tilga oldi. Davlatimiz rahbariga “Do‘stim, birodarim”, deb murojaat qilindi.

O‘zbekiston faqat bugun emas, avvallari ham xalqaro maydonda ayni shu pozitsiyada faollik ko‘rsatgan. 1966-yil 10-yanvar kuni Toshkentda Hindiston Bosh vaziri La‘l Bahodir Shastri va Pokiston Prezidenti Ayubxon imzolagan deklaratsiya ikki mamlakat o‘rtasidagi nizoni to‘xtatish, tomonlarni murosaga keltirishga asos bo‘ldi. Shuningdek, Hindiston va Pokistonning mashhur ayol rahbarlari — Indira Gandi hamda Benazir Buxto ham o‘zaro tinchlik-totuvlikka erishishni orzu qilgan edi...

Ko‘z o‘ngimizda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar faqat iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar bilan cheklanayotgani yo‘q. Biz

uzoq yillar tariximizni xolis va haqqoniy o‘rgana olmadik, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy merosdan bebahra yashadik. Sobiq tuzum mafkurasiga bunga yo‘l bermadi. Bu mafkura bizni Amir Temurdek buyuk sarkarda va davlat arbobidan, temuriyozdalar ma‘rifatidan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Najmiddin Kubro, Shayx Hovandi Tohir kabi allomalardan uzoqlashtirdi.

Bunday ulug‘ va mo‘tabar zotlarning merosi xorijiy davlatlarda moziyshunos olimlar tomonidan qunt bilan o‘rganilayotgan, ilmiy anjumanlar o‘tkazilayotgan, asarlar yozilayotgan bir paytda bizda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan kishilarning ongiga dahriy dohiylarning kommunizm haqidagi cho‘pchaklari singdirildi. Xalqimizning necha asrlik milliy qadriyatlarini oyoqosti qilindi, tilimiz va dinimiz tahqirlandi. Ma‘no-mohiyatiga ko‘ra yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, farovonlik, millatlararo totuvlik, e‘tiqod erkinligi, bag‘rikenglik tushunchalarini ifodalaydigan istiqbol g‘oyasi bunday g‘ayrixalqiy siyosatga barham berdi.

Bugun mamlakatimizga kelib, Toshkentdagi mahobatli Islom sivilizatsiyasi markazini, Samarqandda Imom Buxoriy hazratlari nomida bunyod etilgan fusukor majmuani ko‘rgan kishi yangi O‘zbekistonni, bu yurt odamlarining qalbi, ulug‘ ajdodlarga cheksiz ehtiromi, davlatimiz rahbarining bardavom xalqchil siyosati mohiyatini aniq tasavvur etadi.

Konstitutsiyamizda mamlakat fuqarolarining millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, teng haq-huquqqa egaligi belgilab qo‘yilgan. O‘zbekistonda umrguzaronlik qilayotgan har bir inson yurtimizda o‘tkazilayotgan va yaqin kelajak uchun ko‘zda tutilayotgan islohotlar, eng avvalo, oilasi va farzandlari, davlatimiz farovonligi va taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotganini aniq-ravshan anglab yetishi nihoyatda muhim. Buning uchun har bir kishi bugungi tezkor va talabchan davrdan ortda qolmay, o‘zining huquqiy madaniyatini va xabardorlik darajasini, islohotlar samarasi uchun ijtimoiy mas‘ullik tuyg‘usini yanada oshirishi, fuqaro sifatida faol bo‘lishi, jamiyat hayotida, dunyoda, yon-atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmasligi, ularning ma‘no-mohiyatini to‘g‘ri anglashi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi lozim.

Har bir xalq faqat erkin va ozod bo‘lsagina o‘z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etish huquqi hamda imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda, “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans” iboralarini tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda milliy taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yayotganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimiz, ulug‘ niyatlarimizning dunyo darajasidagi e‘tirofidir. Chunki O‘zbekiston qisqa muddatda tashqi dunyoga ochiq makon, ishonchli hamkor, bag‘rikeng, saxovatli, tinch-totuv diyor sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faollashdi. O‘zining ishonchli, do‘stiga sadoqatli, tinchliksevar, insonparvar imijini yaratdi. Bu qutlug‘ jarayon bundan buyon ham izchil davom etishi shubhasiz.



Nuqtayi nazar

Davlat taraqqiyotini aniqlashda ba‘zan iqtisodiy ko‘rsatkichlar, infratuzilma yoki ishlab chiqarish hajmlari asosiy mezon sifatida qabul qilinadi. Ammo tarix tajribasi ko‘rsatadiki, taraqqiyot, avvalo, davlatning o‘zini anglashi, dunyodagi o‘zgarishlarga munosabatlari va kelajakka nisbatan qanday falsafani tanlashi bilan belgilanadi. Davlatimiz rahbari 2-fevral kuni Navoiy xalqaro aeroporti faoliyatini yuritishga ahamiyatini oshirish hamda aviatsiya korxonalarini transformatsiya qilish bo‘yicha taqdimot bilan tanishishda ham bu sohadagi ishlarga yangicha yondashuvni ilgari surdi.

Aviatsiya sohasi zamonaviy dunyoda allaqachon oddiy transport tarmog‘i emas. U davlatning harakat tezligi, ochliklik darajasi, texnologik salohiyati va boshqaruv madaniyatini aks ettiruvchi ko‘zguga aylangan. Qaysi davlat aviatsiyani rivojlantira olsa, o‘sha davlat iqtisodiy makonda faol, siyosiy maydonda ishonchli va inson kapitali jihatidan raqobatbardosh bo‘ladi. Shu bois, fuqaro aviatsiyasi korxonalarini transformatsiya qilish masalasi mamlakat iqtisodiyotining alohida sohasi emas, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Fuqaro aviatsiyasi korxonalarini transformatsiya qilish jarayonida davlat nafaqat

samaradorlikni oshirishga, balki xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh va ustuvor vazifalar asosida faoliyat yuritadigan tizimni shakllantirishga intilmoqda. Bu jarayon orqali davlat korxonalari o‘z moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bilan birga innovatsiyalarni qabul qilish, kadrlar malakasini oshirish va raqamlashtirish kabi muhim masalalarda ham oldinga chiqadi. Shu ma‘noda, aviatsiya transformatsiyasi bugungi kunda milliy iqtisodiy va strategik masalalarni hal qilishda muhim omildir.

Taqdimotda fuqaro aviatsiyasi korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Bugungi kunda samaradorlik har qanday islohotning markaziy tushunchasiga aylandi. Davlat ishtirokidagi korxonalar samarasiz ishlasa, bu iqtisodiy yo‘qotishlar hamda jamiyatda davlatga ishonchning susayishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, xarajatlarni qisqartirish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat boshqaruvida yangi iqtisodiy tafakkur shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa faqat iqtisodiy samara uchun emas, balki davlat korxonalarini bozor qonunlari asosida hisobdor tarzda faoliyat yuritishga tayyorlash demakdir. Qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar samarali boshqarilganda, asosiy faoliyatga e‘tibor kuchayadi va ish sifatini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu yo‘l bilan davlat nafaqat xarajatlarni qisqartiradi, balki korporativ madaniyatni va hisobdorlik tamoyillarini ham mustahkamlaydi.

Bu yerda gap faqat tejamkorlik yoki hisob-kitob haqida emas. Bunda davlat korxonalarini bozor qonunlari asosida ishlaydigan, natija uchun javob beradigan va o‘z moliyaviy barqarorligini mustaqil ta‘minlay oladigan institutlarga aylantirish maqsadi yotadi. Bunday yondashuv davlatning iqtisodiyotdagi rolini ko‘rsatib, ma‘muriy nazoratdan strategik hamkorlik modeliga o‘tishini belgilaydi.

Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va elektr energiyasida harakatlanuvchi maxsus transport vositalaridan foydalanish orqali ekspluatatsiya xarajatlarni kamaytirish masalasi chuqur ma‘noga ega. Chunki bugun taraqqiyot faqat iqtisodiy samara bilan emas, balki ekologik mas‘uliyat bilan ham o‘lchanadi. Atrof-muhitga munosabat davlatning kelajak avlod oldidagi axloqiy pozitsiyasini belgilaydi. Aviatsiya sohasida “yashil” texnologiyalarga o‘tish hozirgi kun manfaatlariga emas, balki uzoq istiqbolga qaratilganini ko‘rsatadi.

Joriy yildan boshlab “Uzbekistan Airways”, “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan nosohaviy faoliyatini moliyalashtirish to‘xtatilishi davlat boshqaruvida aniq ustuvorliklar belgilab olinayotganidan dalolat beradi. Bu aviatsiya korxonalari o‘z diqqatini asosiy vazifasiga, ya‘ni xavfsiz, sifatli va raqobatbardosh xizmat ko‘rsatishga to‘liq qaratishi lozim. Faoliyatini “Uzbekistan Airways” 18 va “Uzbekistan Airways” esa 16 ta ustuvor vazifa asosida amalga oshirishi tizimli fikrlash va aniq rejalashtirish madaniyati qaror topayotganini anglatadi.



Xizmatlar sifatini oshirish, xizmat va mahsulot tanaxrini hisoblashda maqbul metodologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarini raqamlashtirish kabi vazifalar aviatsiya sohasini yangi texnologik bosqichga olib chiqadi. Raqamlashtirish faqat avtomatlashtirish emas, balki qaror qabul qilish tizimini shaffof, tezkor va aniq qilish demakdir. Bu orqali davlat iqtisodiyotida samaradorlik, hisobdorlik va ochliklik tamoyillari mustahkamlanadi.

Transformatsiya doirasida tashkiliy tuzilmalarni qayta ko‘rib chiqish va shtat birliklarini maqbullashtirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon inson resursiga munosabatini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Samarali tizimda natija, tashabbus va mas‘uliyat ustuvor bo‘ladi. Bu esa mehnat madaniyatida sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishni anglatadi. Davlat korxonalarida inson kapitaliga investitsiya qilish natijasida uzoq muddatli barqarorlik ta‘minlanadi.

Xalqaro kredit reytinglarini oshirish, IPOga chiqish va korporativ xalqaro obligatsiyalarni joylashtirish rejalari aviatsiya korxonalarini xalqaro moliyaviy maydonga olib chiqishga qaratilgan. Bu qadamlar davlat korxonalarini faoliyatini xalqaro standartlar asosida baholab, ochiq va hisobdor tizimga aylantiradi. Bu esa investitsiya muhitini yaxshilash bilan birga mamlakatning iqtisodiy imijiga ham ijobiy ta‘sir etadi.

Aviatsiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish masalasi transformatsiyaning eng muhim asosidir. Chunki har qanday texnologiya yoki infratuzilma markazida inson turadi. Fuqaro aviatsiyasi universiteti va aviatsiya texnikumini tashkil etish, ularni dunyodagi yetakchi ta‘lim markazlari bilan hamkorlikda rivojlantirish orqali davlat kelajakni shakllantirmoqda. Bu yerda faqat mutaxassis tayyorlash emas, balki yangi tafakkurga ega avlodni kamol toptirish maqsad qilingan.

Uchuvchilik, muhandislik, havo harakati dispatcherligi, aviatsiya boshqaruvi kabi yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash aviatsiyani yuqori intellektual soha sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy dasturlarni joriy etish esa aviatsiya sohasini innovatsiya manbayiga aylantiradi. Buning natijasida mamlakat yangi bilim va texnologiya yaratuvchi davlat sifatida shakllanadi. Har qanday islohotning muvaffaqiyati uning ortida qanday siyosiy qat‘iyat va jamoaviylik turgani bilan belgilanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, aviatsiya korxonalarini transformatsiya qilish sohaviy islohot emas, aksincha, davlatning dunyodagi o‘rni belgilashi va kelajak oldidagi mas‘uliyatini anglagan holda harakat qilishi demakdir. Bu jarayon tezlik, samaradorlik va mas‘uliyatni uyg‘unlashtirgan yo‘ldir.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

Mustaqil davlat shakllanishi va mustahkamlanishida yuz yillarga tatulik bulirish nuqtalari bo'ladl. Shu ma'noda 2016-2026-yillar, shubhaslz, yangl O'zbeklston solnomasiga buyuk "lnтеллектуал yuxalish" va Uchlnchl Renessans poydevorl qo'yilgan davr sifatlada oltln harflar bilan bitiladi. Ushbu davr Prezidentimizning qat'iy iroda va shijoatl asoslda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan misli ko'rilmanan moliyaviy, tarkibiy va mental o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Agar statistik ma'lumotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va byudjet ajratmalari hajmi chuqur, ilmly asoslangan holda qiyosiy tahlil qilinsa, tarixan qisqa vaqt mobaynida O'zbeklston ta'lim o'rlnari juda tanqis bo'lgan va yopiq akademik muhitli davlatdan kadrilar tayyorlashning diversifikatsiyalangan tizimi hamda ulkan investitsiyaviy ko'makka ega qudratli mintaqaviy intellektual xabga aylanib, haqiqiy buyuk sakrashni amalga oshirgani ayon bo'ladl.



Go‘zalbegim RAHIMOVA,
iqtisodiyot fanlari doktori

Yuz bergan o'zgarishlar ko'laminin xolis va haqiqiy baholash hamda chuqur anglash, tushunish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladigan 2016-yil raqamlariga murojaat qilish lozim. Chunki o'sha davrda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi bo'yig'ri 9 foizni tashkil etar, bu dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligi uchun real xavf tug'dirardi. Oliy ta'lim tizimi qat'iy davlat monopoliyasi va institutsional turg'unlik bilan ajralib turardi: respublikamiz bo'yicha atigi 77 ta oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatib, ularning barchasi istisnosiz qoldiq prinsipi asosida moliyalashtiriladigan davlat tuzilmalari edi. Ushbu strategik segmentda xususi sektorning ulushi mutlaq nolga teng bo'lib, bu tizimni molashuvchanlik va innovatsion salohiyatdan mahrum qilindi. Talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik o'ta yuqori darajada edi: har yili qabul komissiyalariga qariyb 700 ming abituriyent hujjat topshirar, ammo talabalik guvohnomasini 60-65 ming baxtli yoshlarga qo'lga kiritar, ulardan ham atigi 19 mingi davlat granti asosida o'qish imkoniyatiga ega bo'lardi. O'tkazish qobiliyatining bunday pastligi bir o'rinda 20-25 kishiga cha bo'lgan sun'iy tanlovni shakllantirib, keng ko'lami korruption sxemalar, ijtimoiy norozilik va yuz minglab iste'dodli yigit-qizlarda umidsizlik hissiini keltirib chiqardi.

2026-yil manzarasi esa tubdan o'zgacha ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni namoyon etmoqda. Bunda tizimli o'zgarishlarning asosiy drayveri

rekord darajadagi byudjet mablag'lari va liberallashtirishga qaratilgan qat'iy siyosiy iroda bo'ldi. 2025-yilgi davlat byudjetida ta'lim va ilm-fan sohasiga sarflanadigan xarajalar tarixiy maksimal darajaga — 84,3 trillion so'mga yetdi, bu barcha davlat xarajalarining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Ushbu ulkan summanning bevosita oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan qismi 14,5 trillion so'mdan oshdi, bu nominal qiymatda 2016-yildagi ko'rsatkichlardan o'n barobar ko'pdir. Ushbu qudratli moliyaviy poydevor va qulay investitsiya muhiti yaratilishi evaziga O'zbekistonda oliy o'quv yurtlarining umumiy soni 2,7 barobar o'sib, 210 ga yetdi.

Islahotlarning tarixiy fenomeni va asosiy yutug'i nadavlat sektorining paydo bo'lishi hamda jadal rivojlanishi bo'ldi. O'n yil avval O'zbekistonda birorta xususiy oliy o'quv yurti yo'q edi. Bugungi kunda esa 85 dan ortiq nadavlat universitet va institut muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bu respublikamiz OTMlari umumiy sonining 40,5 foizini tashkil etadi. Ushbu tektonik tarkibiy o'zgarish oliy ta'lim qamrovini kritik 9 foizdan 2026-yilda rekord darajadagi 50 foizgacha oshirish imkonini berdi. Ushbu ko'rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlariga mos keladi va "O'zbekiston — 2030" strategiyasi vazifalariga to'liq javob beradi.

Biroq infratuzilmaning miqdoriy o'sishi tizimning intellektual yadrosini sifat jihatidan yangilashni taqozo etadi. Bu boradagi statistika ham haqiqiy kadrlar renessansidan dalolat beradi. 2016-yilda respublikamiz o'liy quvv yurtlarida ilmiy salohiyat darajasi (ilmiy darajali o'qituvchilar ulushi) zo'rg'a 32 foizga yetar, fan doktori va professor ilmiy darajasiga ega pedagoglarning umumiy soni butun mamlakat bo'yicha 9 mingdan oshmas edi. Professor-o'qituvchilar ish haqini o'rtaacha 4,5 barobar oshirishni ko'zda tutuvchi radikal moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etilishi, shuningdek, dissertatsiyalarni himoya qilish bo'yicha byurokratik tartib-taomillar soddalashtirilishi (sifat tablablarni pasaytirmagan holda) natijasida 2026-yilga kelib, ilmiy salohiyat darajasi 55 foizdan oshdi. Hozir mamlakatimiz auditorialarida PhD va DSc ilmiy darajasiga ega 35 mingdan ortiq pedagog dars bermoqda. Bu millat intellektual kapitalining qariyb to'rt barobar o'sganini anglatadi. O'liy o'quv yurtlariga yosh olimlar kirib kelishi avlodlar davomiyligini ta'minladi va universitet laboratoriyalariga yangi ruh bag'ishlab, intellektual turg'unlikka qarshi mustahkam to'liq yaratadi.

Itijmoiy adolat va bilimlarni foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi davlat buyurtmasi tuzilmasi ham tubdan o'zgardi. Agar 2016-yilda grant asosida 20 mingdan kam kishi ta'lim olgan bo'lsa, 2025/2026 o'quv yilida byudjet o'rinlari (grantlar) soni 197,5 mingga yetdi, bu iste'dodli yoshlarni bepul o'qitish imkoniyati o'ri barobar oshganini anglatadi. Kadrlar tayyorlash bo'yicha ushbu davlat dasturlari moliyalashtirish uchun birligina 2025-yilda byudjetdan 10,7 trillion so'm ajratildi. Davlatning alohida g'amxo'rligi aholining itijmoiy himoyaga multo'j qatamlarini manzilli ko'lab-quvvatlay va gender tenglikni ta'minlashda namoyon bo'lmoqda. Har yili davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to'lovlarini to'liq qoplash uchun kamida 200

Uchinchi Renaissance poydevori

TUB BURILISH DAVRI

KEYINGI O'N YIL ICHIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

milliard so'm ajratilmoqda. Jahon amaliyotida o'xshashi yo'q misli ko'rilmagan mazkur chora ilm-fan va magistraturada ayollar ulushini 45 foizga yetkazish imkonini berdi.

Bundan tashqari, 2024-yildan boshlab foizlari davlat tomonidan qoplanishi uchun 150 milliard so'm ajratilgan yangi, to'liq raqamlashtirilgan ta'lim kreditlari to'lov-kontrakt asosida o'qishni aholining keng qatlamlari uchun hamyonbop qildi. Turli moliyaviy to'siqlarni bartaraf etdi.

M i g r a t s i y a
oqimlarining chuqur
tahlili ham jahon il-
fanida aytiladigan
"Ta'lim u yda"
strategiyasi talabalar chet
elga chiqib ketishining
(migratsiya) oldini
olish uchun mahalliy
universitetlarda xalqaro
muhitni yaratishga
xizmat qilmoqda. Vaholanki, o'n yil avval
yuzlar chetga chiqib ketishining kritik hali
kuzatilganligi. Ekspertlar bahosiga ko'ra, maktab
bitiruvchilarining 30 foizigacha qismi (har yili
qariyb 100-120 ming kishi) qo'shni davlatlar –
Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Rossiya
oliy o'quv yurtlariga o'qish uchun ketardi.
Bunda ham ko'pincha faqat diplom olish
ilinjida sifati shubhali ta'lim muassasalarini
tanlashi valyutaga chiqib ketishi ko'rinishida
iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri zarar
yetkazardi. 2026-yilga kelib bu vektor 180
darajaga o'zgardi: "majburiy" migratsiya ulushi
tabiiy 5-7 foiz darajasigacha qisqarib, ishonchli
ta'lim eksportiga aylandi. O'zbekistonda xorijiy
talabalar soni 600 nafardan 12 ming 500 nafargacha



2024-2025-yillarda uning faoliyati uchun 600 milliard soʻmdan ortiq mablagʻ ajratiladi, bu esa 5000 dan ziyod yosh mutaxassisini barcha xarajatlari davlat tomonidan qoplangan holda TOP-100 talikka kiruvchi yetakchi xorijiy universitetlarga oʻqishga yuborishi imkonini berdi.

Davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarida
 faoliyatining qiyosiy tahlili sog'lom raqobatba-
 mahiti shakllanganini ko'rsatadi. Davlat
 OTMlari fundamental fanlar, tibbiyot va
 muhandislik sohalarida so'zsiz yetakchilikni
 saqlab qolgan holda ilmiy tadqiqotlar uchun
 davlat grantlarining 100 foizini boshqarmqda.
 Biroq raqamli texnologiyalar, xalqaro biznes
 va gumanitar yo'nalishlar bo'shlig'ini
 to'ldirish xususiy OTMlar yuqori institutsional
 moslashuvchanlikni namoyish etmoqda. Ularda

bazasini rivojlantirishga 6,6 trillion so'm
yo'naltirilgan) butun tizimni natija uchun
ishlashga majbur qildi.

2016-yilda ushalmas orzu bo'lib tuyulgan xalqaro reytinglariga kirishib bugungi kundagi faktlar bilan tasdiqlandi. 2026-yilga kelib "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" Milliy tadqiqot universiteti QS World University Rankings fanlar reytingining TOP-300 taligidan (reyting natijalari kelayotgan yil uchun e'lon qilinadi, 2026-yil uchun reyting 2025-yil noyabrda e'lon qilingan) mustahkam o'rin oladi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti esa TOP-1000 guruhiga kiradi. Yangi formatdagi boshqaruv elitasini tayyorlashda "El-yurt umidi" jamg'armasi muhim rol o'ynadi. 2024-2025-yillarda uyrtiq faoliyat uchun 600 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratiladi, bu esa 5000 dan ziyod yosh mutaxassisni barcha xarajatlar davlat tomonidan qoplangan holda TOP-100 talikka kiruvchi yetakchi xorijiy universitetlarga o'qishga yuborish imkonini berdi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida erishilayotgan strategik natijalarning barqarorligi so'nggi yillarda sohada amalga oshirilayotgan izchil va tizimli qonunchilik islohotlari bilan bevosita bog'liq. Mazkur evolyutsion jarayon milliy ta'lim bozorining kengstvisi (miqdoriy) kengayish bosqichidan intensiv (sifat va mazmun) rivojlanish pallasiga o'tishini ta'minladi. Bu borada Prezidentimizning 2024-yil 24-maydagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni sohada

taraqqiyotida yangi davrni boshlab beruvchi konseptual hujjat bo'ldi. Ushbu huquqiy hujjat davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash jarayoniga nodavlat sektorni jalb qilishning qat'iy, ammo adolati imperativ mezonlarini belgilab berdi.

Xususan, davlat grantlarini taqsimlashda ishtirok etishni maqsad qilgan xususiy oliy ta'lim tashkilotlari uchun litsenziya talablariga qat'iy rioya etish, jumladan, asosiy shartdagi professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy-salohiyati kamida 35 foizni tashkil etishi hamda muassasaning o'quv jarayoni uchun mo'ljallangan bino-inshootlar va moddiy-texnika bazaga ega bo'lishi majburiy shart sifatida mustahkamlandi. Natijada ta'lim xizmatlari bozorigaide nosog'lom raqobatcha barham berildi.

Ta'lim jarayoni shaffofligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiyalar hisobga olguncha qadriyatli bo'ladi. Ular talabalar uchun bilim olishni qulaylashtirish va o'rnatilgan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Xususan, mulkchilik shaklidagi qat'i nazar barcha oliyohanglarning yagona "Oliy Ta'lim" jamoasiga aylantirilishi boshqarish xaborot tizimi (HEMIS) platformasiga to'liq integratsiya qilinishi korrupsion omillarni keskin qisqartiradi. Ushbu tizim talabalarda davomati, o'zlashtirishni ko'rsatkichlari va diploml berish jarayonlarini inson omili bilan nazorat qilish imkonini yaratib, akademik halollik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, 2021-yilda davlatimiz rahbarining tegishli qarori asosida 35 ta yetakchi davlat oliy ta'lim muassasasiga moliyaviy, akademik va tashkiliy mustaqillik berilishi tizimdagi inqilobiy qadam bo'ldi. Bu maqom ularga byudjetdan tashqari mablag'larni mustaqil tasarruf etish, yetakchi xorijiy olimlarni to'g'ridan to'g'ri jalb qilish, o'quv rejalarini bozor talabidagi moslashtirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish (Commercialization) jarayonlarini erkin amalga oshirish vakolatini berdi.

Xulosa o'rmda ta'kidlash joizki, 2016-2026-yillarda O'zbekiston o'zgarishlar tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlar sohadagi davlat monopoliyasiga barham berib, raqobatbardosh xususiy sektorning shakllanishiga fundamental asos yaratildi. Ushbu evolyutsion jarayonning eng muhim natijasi ta'lim bozoringing ekstensiv kengayishi bosqichidan intensiv sifat o'zgarishlari pallasiga o'tishi bo'ldi. Sohaning raqamlashtirilishi tufayli ta'lim xizmatlari bozorida faqat yuqori ilmiy salohiyat, zamonaviy infratuzilima va akademik halollik standartlariga javob beradigan ilmiyog'ohlar faoliyat yuritishini kafolatlovchi barqaror va adolati tizimi vujudga keltirdi.

Misrning Qohira shahri. Karate bo'yicha kattalar o'rtaidagi jahon chempionati yakuniga yetdi. Hashamatli sport saroyida g'oliblarni e'lon qilish va taqdirlashdagi eng hayajonli damlar.

Odarga ko'ra, shohsupaga dastlab uchinish, so'ng ikkinchi o'rta sohlablari chaqirildi. Ular o'z o'rini egallagach, butun sport saroyiga jimgilik cho'kdi.

Tomoshabinlar birinchi o'rta egasi kim ekanini tezroq bilish istagida hatto nafas olishni ham unutgandek edi go'yo. Axir jahon chempioni bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ko'plab davlat vakillariini dog'da qoldirish oson emas. Nihoyat suxandorning ovozi baland yugardi: "50 kilogrammgacha bo'lgan vaznda birinchi o'rinni Gulshan Alimardonova egalladi! O'zbekiston!".

Ozurlarini ro'yogha chiqara olgan o'zbek qizi shohsupa sari borayotgan dog'da guldurso qarsaklar yangradi. Ching nomi O'zbekiston tarixida ilk bor karate bo'yicha ayollar o'rtaidagi jahon chempioni sifatida tash sahifalariga muhrlandi.

* * *

U karate bilan shug'ullanishni maqsad qilganida endigina yetti yoshda edi. Ilk marta tengdosh qizlarni chiroyli sport libosida ko'rib, ko'nglida havas uyg'ongandi. O'sha paytlari televizordagi karate bilan shug'ullanuvchilar haqida ko'rsatuv namoyish etilsa, zo'r qiziqish bilan tomosha qilardi. O'zicha turli harakatlarga taqib qiyi, ammo ustoz ko'rmagani boisi, tabiiyki, unchalik o'xshamadi.

Maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan karatenni o'rgatishni so'rab iltimos qilgan, lekin

O'shanda shug'ullana boshlaganiga endi bir oy to'lgandi. Shahrisabz shahrida yoshlar o'rta-sida viloyat birlinchiligi o'tkaziladigan bo'ldi. Murabbiy shogirdlarini saralarkan, Gulshan ham bellashuvda qatnashish istagida ekani-ni aytdi. Hali tajribasiz qizchani maydonga tushirib bo'lmadi. Shunday bo'lsa-da, murabbiy uning shastini so'ndirishni xohlamadi. Ish-tirivchilika safiga qo'shdi.

Ilk musobaqa. Hayajondan Gulshanning qo'li bir oz tiramoqda. Maydon o'tasiga chiqqanida qo'rquvni kuchaydi. Hamma unga qarab turgandek edi. Qizcha shoshib, o'zini yo'qotib qo'ydi. Murabbiyning tanbehi uni o'ziga keltirdi. Birinchi uchrashuvdayoq raqibini ochko hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Bu Gulshanning ilk g'alabasi edi. Bundan ruhlanib, qizcha keyingi uchrashuvda ham ustunlikka erishdi. Yarim finalda esa baribir tajribasi kamligi sezilib qoldi. Biroq ilk musobaqada uchinchi o'rinni egallagan qiz uchun katta muvaffaqiyat edi. Shu kuni olgan bronza medalini kechga qadar qo'lidan qo'yman, ota-onasiga, buvisiga ko'rsatib, rosa maqtangandi.

Qisqa muddatda erishilgan natija qizning sportga qiziqishini yanada oshirdi. Endi hech bir mashg'ulotni kanda qilmaslikka harakat qiladigan bo'ldi. Asta-sekin tajribasi oshib bordi. Shahar, viloyat birinchiliklarida ishtirok etib, faxrlı o'rinni egallay boshladi. Maqsadi sari dadil odimlar ekan, murabbiyining har bir sabog'ini astoydil o'q'lashtirishga harakat qilardi.

Gulshar ota-onasining oq'llab-quvvatlari

o'quv dasturlarini yangilash tezligi davlat sektoridagiga qaraganda 40-50 foiz yuqori. Infratuzilmaga kiritilayotgan keng ko'lamli investitsiyalar bilan mustahkamlangan ushbu omil (birgina 2025-yilda investitsiya dasturlari doirasida davlat OTMlarining moddiy-texnik

ODDIY HAVASDAN JAHON CHEMPIONLIGIGACHA



bilan shu darajaga yetganini har doim his qilib
turadi. Kosondan Qarshi shahriga sakkiz yul
qatnadi. Deyarli har kuni mashg'ulotga kelib-
ketish uchun o'ziga yarasha mablag' kerak. Otasi
oddii ishchi bo'lsa-da, qizi uchun harakat qildi.
Chora topilmay qolganida hech o'ylab o'tirmay
uyini sotib, Qarshi shahriga borib ijara-da yashay
boshladi. Bu, eng avvalo, Gulshun uchun katta
imkoniyat edi. Oilasidagilar uning uchun
barchasiga rozi ekanini angldi. Shu bois, har
bir turnirda g'alaba qozonish ishtiyoqida bo'ldi.

Yutuqlari ham ko'payib bordi. Bugunga qadar u 10 karra O'zbekiston, 3-marta Osiyo chempioni bo'ldi. Bir necha bor xalqaro turnirlarda birinchi o'ringa munosib ko'rildi. 2025-yili O'zbekistonda o'tkazilgan MDH o'yinlarida g'alaba qozondi.

* * *

Gulshan shohsupaga chiqdi. Bo'yniga
oltin medal ilindi. Musobaqa tartibiga ko'ra,
g'olib sportchi sharafiga madhiyamiz yangradi.

Qizning nigohi baland ko'tarilayotgan o'zbekiston bayrog'ida. Taqdirlash marosimini yakuniga yetgach, boshqa yurt vakillari u bilan birga suratga tushish istagida ekanini eshitib yanada mamnun bo'ldi. Ularning O'zbekiston haqidagi har bir savoliga faxr bilan javob berdi. Jannatmonid yurтимizga taklif etdi. Shu kun mamlakatimizning tarix zarvarqlarida ilk bor o'zbek qizi Gulshan Alimardonova karate WKF bo'yicha jahon chempionligini qo'lga kiritgan qavd etildi.

— Dunyo sporti arenasida yuqori o'rinlarni egallashga ataydidi intilganman, — deydi Gulshan Alimardanova. — 2025-yil men uchun omadli bo'ladi. Ozurlarim amalga oshdi. Jahon chempionligini qo'lga kiritish bilan birga noolimpiya sport turlari bo'yicha mamlakatimizda "Yilning eng yaxshi uchuvchi sportchisi" deya e'tirof etildim. Bu men uchun katta sharaf. Eng muhimi, otamning ushlaymay qolgan orzusini amalga oshirdim. U yoshligida sportchi bo'lishni juda istagan. Ammo sharoit bo'lmagani bois, shug'ullana olmagani. Shu sabab menga shart-sharoit yaratib bergan. Buning uchun ot-a-onamga rahmat. Shu bilan birga, har gal murabbiyimning mehnatini ta'kidlab o'tgim keladi.

Sportchi qiz jahon chempionligini qo'lg'a kiritgan bo'lsa-da, harakatdan to'xtagani yo'q. U hozir 20 yoshda. Karate bo'yicha dunyo reytingida 2-o'rinda. Maqsadi — birinchi o'rinda qo'tarilish. Darvoqe, o'tgan yili O'zbekistonda ayollar o'rta-sida ilk marta karate WKF bo'yicha jahon chempioni bo'lgan sportchi qiz Prezident sovg'asi sifatida BYD Song Plus avtomobili bilan ta'dirlangan.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

“DAVRON MENI O'TKARDI SARU SOMONDIN”

SHOH VA SHOIR NAZDIDA MA'RIFAT HAMDA BOSHQARUV QIYMATI

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so'z ketganda, uning g'alabalari ham, mag'lubiyatlari ham tilga olinadi. Ammo biz asosiy e'tiborni natijalarga emas, munosabatga qaratmoqchimiz. Chunki tarixda ko'p hukmdorlar g'alaba qozongan, lekin ba'zilari borki, mag'lubiyat haqida ham rost so'zlay olgan. Bobur ana shu kamyob tafakkur egalariidan biri edi.



Munisjon HAKIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi
 davlat adabiyot muzeyi nodir
qo'lyozmalar bo'limi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori

Bobur merosini o'qir ekanmiz, uning davlatchilikka munosabati boshqa ko'p tarixiy hukmdorlarnikidan tubdan farq qilganini ko'ramiz. U uchun hukmdorlik faxrlanadigan maqom emas, balki har kuni o'z-o'ziga hisob berib yashash majburiyati edi. Shu jihati bilan Bobur boshqaruvni natija emas, jarayon bilan o'lchaydi.

Bu tafakkur, eng avvalo, uning xotiralari — “Boburnoma”da yaqqol ko'rinadi. Asarda Bobur o'zini oqlashga urinmaydi, aybni boshqalarga yuklamaydi. Masalan, Samarqand uchun kurashlardagi mag'lubiyatini tashqi xiyonat yoki taqdir emas, tajribasizligi va noto'g'ri qarorlari bilan bog'laydi. U bir o'rinda yoshligini, siyosiy vaziyatni yetarlicha anglab yetmaganini ochiq tan oladi.

Sarkarda uchun rost so'zlash siyosiy zaiflik emas, aksincha, ma'naviy ustunlik edi. Shuning uchun u g'alabani ham, mag'lubiyatni ham bir xil samimiyat bilan yozadi. Ayni shu nuqtada Bobur hokimiyatni shaxsiy mas'uliyat sifatida anglagan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Bu munosabat uning ijodida ham davom etadi. Bobur o'z she'rlarida davlat, taxt yoki qudratni abadiy ne'mat deb tasvirlamaydi. Aksincha, davlat o'tkinchi ekani, inson esa uning oldida ma'naviy jihatdan javobgarligini bot-bot eslatadi:

Davron meni o'tkardi saru somondin,
Oyirdi meni bir yo'li xonumondin.
Gah boshima toj, gah balo'iy ta'na —
Nelarki, boshimg'a kelmadi davrondin.
Muhimi shundaki, Bobur hokimiyatni yo'qotgan pallada ham o'zini oqlamaydi. U mag'lubiyatni ichki hisobot sifatida qabul qiladi. Bu esa hokim uchun og'ir, biroq eng zarur bosqich — o'zini o'zini tanqid qilish madaniyatidir.

Adolat va xalq roziligi

Bobur uchun adolat qonun matni emas, balki amaliy munosabat. U hokimiyatga yetib, xalqni unutgan rahbarni keskin ogohlantiradi: Davlatqa yetib, mehnat elin unutma! Bu besh kun uchun o'zungi asru tutma!

Jumlada hokimiyatning haqiqiy tayanchi ochiq aytilgan: mehnat eli. Xalq dardini unutgan davlat uzoqqa bormaydi. Shoir fikri bugungi “xalqchil davlat” tamoyillari bilan to'liq uyg'un.

Bobur zulmning manbasini tashqi dushmandan emas, ichki buzilishdan izlaydi. Uningcha, hokimiyatni yemiruvchi eng xavfli kuch nafs va manmanlikdir:

Nafs dushmandurur

yaqin bilgil,

Do'stum, bu so'zumni chin bilgil.

Bu — siyosiy falsafa. Agar rahbar nafsini jilovlamasa, adolat ham, xalq roziligi ham yo'qoladi. Shu bois, muallif hokimiyatni axloqiy jihatdan o'zini nazorat qilishi bilan bog'laydi.

Shoir davlatni xalqdan ustun qo'ymaydi, aksincha, davlat xalq roziligiga bog'liq ekanini uqtiradi. Shuningdek, Bobur hokimiyatga mahliyo bo'lib qolishni ma'naviy tanazzul deb biladi:

Davlat uchun ko'ngulni zor etma,
Izzat uchun o'zungi xor etma!

Shoh va shoir tajribasi shuni ko'rsatadiki, adolat kuchni cheklovchi vosita emas, aksincha,



uni qonuniy va barqaror qiladigan omildir. Urush va beqarorlik sharoitida ham u xalq roziligini yo'qotmaslikka intilgan. Chunki Bobur uchun g'alaba faqat maydonda emas, odamlar qalbidagi qo'lga kiritiladi.

Boburning davlatchilik tafakkurida eng muhim chegara inson qadridir. U uchun hokimiyat har qanday sharoitda ham insonni poymol qilish huquqini bermaydi. Bu jihat uning siyosiy qarashlarini o'sha davrdagi ko'plab hukmdorlar tafakkuridan keskin ajratib turadi.

Ushbu munosabat “Boburnoma”da urush voqealari bayon qilingan o'rinlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bobur jangni qahramonlik yoki romantik holda emas, balki inson hayotiga solgan og'ir fojia sifatida tasvirlaydi. Samarqand qamali paytida u xalq qanday ochlik va tanqislikka tushganini yashirmay yozadi: “Elga bisyor tanqisliq bo'ldi. Lig'a yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar...”.

Urushning oqibatlari inson joni bilan o'lchanganini ham ochiq qayd etadi: “Ulug'-ulug' beklar va yaxshi-yaxshi yigitlar, qalin kishi bu urushta talaf bo'ldi”.

Asardagi satrlar Boburning urushni zafar emas, balki xalq taqdiriga tushgan og'ir sinov sifatida anglaganini ko'rsatadi. Uning bu yozish uslubi hukmdorning o'zi yuritgan siyosatga ma'naviy javobgarlik hissini ifodalaydi.

Shoh Bobur zo'ravonlikni davlatchilik usuli sifatida qabul qilmaydi. U kuch ishlatishni zarurat, ammo me'yordan chiqarishni halokat deb hisoblaydi. Shu sabab jangdan keyin intiqomni emas, tartib va barqarorlikni ustuvor qo'yadi. Bu holat uning rahm-shafqatni zaiflik deb bilmaganini ko'rsatadi.

Ayni tafakkur Boburning she'rlarida ham chuqur aks etgan. U qudrat va davlatni inson taqdiri

asos bilan mustahkamlash mumkinligini anglagan tarixiy hukmdor edi. Uning tafakkurida ilm va madaniyat davlat barqarorligining asosiy sharti hisoblangan. Bu qarash hukmdorning amaliy siyosatida ham, shaxsiy hayotida ham namoyon bo'ladi. Samarqand fatihidan so'ng Bobur olim va ijodkorlarga nisbatan ehtiyotkor hamda homiylarcha munosabatda bo'ladi. Ayniqsa, fazilat egalarga nohaq shubha bilan qarashga yo'l qo'ymaydi. Masalan, Mullo Binoiy haqida bunday yozadi: “Necha kundan so'ng chun fazilatliq kishi edi, gunohe sodir bo'lmaydur edi, Samarqandg'a kelturduk”.

Bu qarash “Boburnoma”da davlat ishlari bilan bir qatorda ilmiy va adabiy hayotning keng yoritilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bobur shaharlarni faqat harbiy nuqtayi nazardan emas, balki ulardagi ma'rifat muhiti bilan baholaydi. Uning Samarqandda Alisherbek (Navoiy) bilan she'riy muloqotni alohida qayd etishi yoki Mullo Binoiy, Xoja Abulbaraka Firoqiy kabi zotlar bilan adabiy musobaqalarni hikoya qilishi kabilar ahamiyatli. Shu ma'noda, Bobur uchun shahar qudrati devorlar yoki qo'shin soni bilan emas, aql, so'z va madaniyat bilan o'lchanadi. Ilmga tayangan davlatgina vaqt sinovidan o'ta olishi haqidagi bu qarash uning butun merosida uzviy g'oya sifatida yashaydi.

Bobur she'r yozishni hordiq chiqarish yoki shaxsiy mashg'ulot deb bilmagan, balki hokimning fikr yuritish madaniyati sifatida ham qabul qilgan. Shu bois, uning she'rlarida davlat, taqdir va inson qismati haqidagi falsafiy mushohadalar ustuvor.

Muhimi, Bobur ilm-ma'rifatni yuqori tabaqagagina regishli soha deb bilmagan. U turkiy tilda yozib, bilim va fikrni keng qatlamga yaqinlashtirdi. Bu — siyosiy qaror. Chunki til



bilan solishtirib, ularning nisbiy ekanini uqtiradi: Ne bala biyikturur davlat tog'i,
Ko'yi g'amni ne bilur davlat tog'i.
Shoir fikriga ko'ra, inson dardini his etmasa, davlatning “balandligi” ma'nosizdir. Bobur uchun inson azobini anglamagan hokimiyat ma'naviy jihatdan qulagandir.

Muhim jihat shundaki, shoh va shoir inson qadriini urush sharoitida ham unutmaydi. U g'alabani ham, mag'lubiyatni ham inson taqdiri bilan bog'lab baholaydi. Bu esa davlatchilikda juda noyob yondashuv: kuchni emas, chegarani bilish madaniyati.

Ilm-u san'at — uzoq muddatli sarmoya

Bobur davlatni faqat harbiy yoki ma'muriy kuch bilan emas, balki ma'naviy va intellektual

va madaniyat orqali xalq bilan muloqot qilish hokimiyatni yopiqlikdan chiqaradi.

Bu nuqtada Zahiriddin Muhammad Bobur merosi bugun ham ahamiyatli. Zamonaviy davlat uchun ilm-ma'rifat strategik zaruradir. Ta'lim rivojlangan jamiyatda kelajakka ishonch ham og'ir bo'ladi. Shu jihatdan Bobur tajribasi bizga bunday xulosani beradi: hokimiyatning eng samarali sarmoyasi — bilimli jamiyat.

Ayni sarmoya darhol natija bermasligi mumkin, ammo davlatni uzoq muddatli barqarorlikka olib chiqadi.

Vatan sog'inchi va tabiat

Vatan Bobur uchun faqat yer yoki hudud emas, balki xotira, til va ruhiy ildiz edi. U hokimiyat uchun kurashib, bir yurtidan ikkinchisiga ko'chishga majbur bo'lgan pallalarda ham o'zini to'laonli g'olib emas, ayni vaqtda taqdir sinovidagi musofir sifatida his qiladi. “Boburnoma”da Samarqand va Andijondan ajralish manzaralari nafaqat siyosiy yo'qotish, balki shaxsiy iztirob sifatida berilgan bunga dalildir. Ayniqsa, qamaldan keyingi holatni u bunday ifodalaydi: “Bu olamda o'tgan vaqoye tush va xayoldek ko'zumga va ko'nglumga ko'rurur edi”.

Bu satrlar shoh va shoir uchun vatan yo'qotilishi hokimiyatdan mahrum bo'lish barobarida ichki barqarorlikka zarba ekanini ko'rsatadi.

Bobur tabiatni ham davlatchilik tafakkurining bir qismi sifatida anglaydi. U bog'lar barpo etishga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas. Bog' uning uchun faqat hordiq chiqariladigan joy emas, balki tartib, uyg'unlik va mas'uliyat ramzi. Inson tabiat bilan uyg'un yashamasa, davlat ham barqaror bo'lmaydi degan falsafa bu yerda yaqqol ko'rinadi. Shoir she'riyatni bilan tanishgan o'quvchi mazkur tuyg'ularning oshkora ifodasiga guvoh bo'ladi. Ya'ni Vatan sog'inchi bu she'riyatda shaxsiy iztirob emas, balki ma'naviy holat sifatida yuzaga chiqadi:

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni

mehnatta kishi.

Ushbu misralar hukmdorning qudrat insonni g'urbatdan qutqarmaydi degan ichki iqroridir. Vatan bilan bog'liq ma'naviy uzilish hech qanday davlat yutug'i bilan qoplanmaydi.

Shoir bu sog'inchni hech qachon xalqidan ustun qo'ymaydi. U dardini siyosiy qarorlarga aylantirib yuborishdan saqlanadi. Aksincha, o'zini tiyish, hissiyotini nazorat qilish orqali davlat manfaatini ustuvor qiladi.

Bugungi siyosiy voqealarda bu g'oya yanada dolzarb. Globallashuv davrida davlatlar faqat iqtisodiyot yoki xavfsizlik bilan emas, balki madaniy xotira va tabiatga munosabat bilan ham baholalanadi. Bobur merosi bizga shuni eslatadi: Vatan — saqlab qolinishi kerak bo'lgan ma'naviy o'zan. Hokimiyat shu o'zanga tayangandagina, xalq bilan uzilmas bog'liqlikni saqlab qoladi.

Milliy o'zlik va olam sahnasi

Bobur shaxsiyatining eng murakkab va muhim jirralaridan biri milliy o'zlikni saqlagan holda jahon sivilizatsiyasiga chiqqanidir. U hokimiyatni kengaytirgani sari o'zligini yo'qotmadi, aksincha, uni yanada aniq angladi. Shu jihatdan Bobur faqat tarixiy shaxs emas, balki global siyosat sharoitida milliy qiyofa qanday saqlanishi mumkinligini ko'rsatgan fenomendir.

Uning til tanlovida, avvalo, bu holat namoyon bo'ladi. Bobur jahon miqyosida saltanat barpo etganiga qaramay, asarlarini turkiy tilda yozdi. “Boburnoma” mahalliy xotira uchun emas,

butun insoniyat uchun qimmatli manba bo'lib qoldi, biroq u aynan milliy tilda yaratildi. Bu muhim siyosiy qaror edi. Chunki tilni saqlash tarixiy xotirani saqlash demakdir.

Jahon siyosatida Boburiylar davlati katta o'rin tutgan bo'lsa-da, asoschisi milliy ildizdan uzilmadi. U o'zini jahon hukmdori deb emas, muayyan tarixiy va madaniy an'ananing davomchisi deb his qildi. Shu sababli Bobur merosida milliylik hech qachon yopiqlikka aylanmaydi. Aksincha, u ochiqlik va muloqot uchun asos bo'ladi.

Qolmadi hurmat ahli olamda,
Olamu olam ahdidin yuv ilik!

Bu misralarda shoir jahon siyosatining beqaror tabiatiga ishora qiladi. Bobur uchun global sahna doimiy formal ramzga aylantirish xavfiga duch keladi. Bobur tajribasi esa jahonga chiqish o'zining ketish emas degan boshqa yo'lni ko'rsatadi.

Hukmdor milliylikni ustunlikka aylantirmaydi. U o'z ildizini boshqalamlikdan yuqori qo'ymaydi, balki unga tayanib, jahon bilan muloqot qiladi. Bu esa bugungi global siyosat uchun juda muhim saboq: milliy o'zlik to'siq emas, balki barqarorlik manbai.

Bugun davlatlar jahon hamjamiyatiga chiqar ekan, ko'pincha milliy qadriyatlardan voz kechish yoki ularni formal ramzga aylantirish xavfiga duch keladi. Bobur tajribasi esa jahonga chiqish o'zining ketish emas degan boshqa yo'lni ko'rsatadi.

Shu ma'noda, Bobur fenomeni zamonaviy siyosiy tafakkur uchun juda dolzarb. U bizga tarix orqali bunday javob beradi: global ta'sir milliy o'zlikni saqlay olgan taqdiridagina ma'noli bo'ladi.

Tarix hokimiyatning ko'p shakllarini ko'rgan. Qudratga tayangan davlatlar ham bo'lgan, zo'ravonlikka suyanagan tuzumlar ham. Lekin tarixda faqat bir mezon sinovdan o'tib qolgan — vijdon. Shu nuqtayi nazardan, Zahiriddin Muhammad Bobur merosi o'tmish haqidagi xotira emas, balki hokimiyatga qo'yilgan axloqiy talabdir.

Bobur davlatni boshqarish mumkinligini isbotladi. Ammo undan ham muhimi, davlatni o'zini ham hisobga torta oladigan hokim orqali boshqarish mumkinligini ko'rsatdi. U g'alabani yashirmadi, mag'lubiyatni oqlamadi, xatoni taqdirga yuklamadi. Shu jihati bilan Bobur hokimiyatni muqaddaslashtirmadi, balki uni ma'naviy sinov sifatida qabul qildi.

Siyosat tezkor qarorlar, raqobat va geosiyosiy bosimlar maydoniga aylangan bugungi sharoitda Bobur tajribasi bir haqiqatni eslatadi: hokimiyatni mustahkamlaydigan omil — faqat resurs yoki kuch emas, balki ishonch. Ishonch esa vijdon, ochiqlik va javobgarlik orqali paydo bo'ladi.

Bobur merosi bizdan o'tmishga maftun bo'lishni emas, balki o'tmish orqali o'zimizga savol berishni talab qiladi. Agar davlat o'z tarixini faqat g'alabalar silsilasi sifatida ko'rsa, o'ziga xato qilish imkonini yopadi. Agar tarixni ma'naviy xulosa manbai sifatida qabul qilsa, taraqqiyot uchun yo'l ochiladi. Bobur ikkinchi yo'lni tanlagan hukmdor edi.

Shu ma'noda, Bobur biz uchun yodgorlik emas, tarixiy mezon. Hokimiyat qanchalik kuchli bo'lmasin, agar u vijdon bilan o'lchamasa, tarix oldida ojiz bo'lib qolaveradi.

Asosiy xulosa shundaki, qudrat davlatni barpo qiladi, lekin uni saqlab qoladigan va oqlaydigan kuch vijdondir.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy